BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH MUAMMOLARI

Xo‘janova Gulshoda Otamurodovna
i.f.f.d.(PhD), dotsent
QarDTU Innovatsion iqtisodiyot kafedrasi

imrconf.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining dolzarb muammolari, ularning iqtisodiy va ekologik jihatlari ilmiy asosda tahlil qilingan. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirish, ekologik madaniyatni shakllantirish hamda hududlar kesimidagi mavjud tafovutlar yoritilgan. Shuningdek, mamlakatda yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha amalga oshirilayotgan davlat siyosati, normativ-huquqiy asoslar va istiqboldagi ustuvor yo‘nalishlar tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari yashil iqtisodiyotning barqaror rivojlanishni ta’minlashdagi ahamiyatini ochib beradi.*

Kalit so‘zlar: *yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik muammolar, chiqindilarni qayta ishlash, yashil investitsiyalar, energiya samaradorligi, ESG konsepsiyasi, ekologik madaniyat, yashil texnologiyalar.*

Аннотация. *В данной статье на научной основе проанализированы актуальные проблемы перехода Узбекистана к «зелёной» экономике, а также их экономические и экологические аспекты. Особое внимание уделено вопросам использования возобновляемых источников энергии, развития системы переработки отходов, формирования экологической культуры и существующим региональным различиям. Кроме того, рассмотрены государственная политика, нормативно-правовая база и приоритетные направления развития «зелёной» экономики в стране.*

Результаты исследования раскрывают значение «зелёной» экономики в обеспечении устойчивого развития.

Ключевые слова: *зелёная экономика, устойчивое развитие, возобновляемые источники энергии, экологические проблемы, переработка отходов, зелёные инвестиции, энергоэффективность, ESG-концепция, экологическая культура, зелёные технологии.*

Abstract. *This article scientifically analyzes the current challenges of Uzbekistan's transition to a green economy and examines their economic and environmental aspects. Particular attention is paid to the use of renewable energy sources, the development of waste recycling systems, the formation of environmental culture, and existing regional disparities. The study also highlights state policies, legal frameworks, and priority directions for the development of a green economy in the country. The research findings reveal the importance of the green economy in ensuring sustainable development.*

Keywords: *green economy, sustainable development, renewable energy, environmental problems, waste recycling, green investments, energy efficiency, ESG concept, environmental culture, green technologies*

imrconf.com

Kirish. Jahonda kuzatilayotgan global ekologik muammolar hamda aholi o‘rtasidagi iqtisodiy nomutanosibliklar “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasining shakllanishiga asos bo‘ldi. So‘nggi yillarda dunyo miqyosida iqlim o‘zgarishiga qarshi tizimli va maqsadli kurash olib borilayotgani ushbu yo‘nalishdagi amaliy sa’y-harakatlarning muhim natijasi hisoblanadi. Bugungi kunda jahon hamjamiyatida ekologik barqarorlikni ta’minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda iqtisodiy o‘sishni atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda tashkil etish masalalari ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning muhim modeli sifatida e’tirof etilmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ham mazkur yo‘nalishda keng ko‘lamli islohotlar

amalga oshirilib, iqtisodiyot tarmoqlariga ekologik yondashuvlarni joriy etish bo‘yicha qator dasturlar va normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda.

Yashil iqtisodiyot — bu iqtisodiy faoliyatni ekologik xavfsizlik tamoyillari asosida tashkil etish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy qilish hamda aholi farovonligini oshirishga xizmat qiluvchi iqtisodiy modeldir[1]. Mazkur model iqtisodiy o‘sish bilan bir qatorda ekologik muvozanatni saqlashni ham nazarda tutadi. So‘nggi yillarda dunyoda iqlim o‘zgarishi, resurslar tanqisligi, ekologik muammolar hamda chiqindilar hajmining ortib borishi yashil iqtisodiyotga o‘tishni global zaruratga aylantirdi. Barqaror rivojlanishning iqtisodiy yo‘nalishi mavjud cheklangan resurslardan oqilona va samarali foydalanishni nazarda tutadi. Ijtimoiy yondashuv esa jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, inson manfaatlarini himoya qilish va madaniy xilma-xillikni сақлашга қаратилган. Ekologik yondashuvning asosiy мақсади esa ekologik tizimlarning tabiiy muvozanatini saqlab qolish hamda atrof-muhitning barqaror faoliyat yuritishini ta’minlashdan iborat.

Barqaror rivojlanish nazariyasining iqtisodiy jihatlari E.R. Lindal va J.R. Xiks ilmiy qarashlarida alohida o‘rin egallaydi. Ularning “maksimal daromad oqimi” nazariyasiga ko‘ra, iqtisodiy daromad jamiyatning umumiy kapitali kamaymagan holda yaratilishi lozim. Mazkur yondashuv tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, energiya va materiallarni tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish, ekologik xavfsiz mahsulotlar ishlab chiqarish hamda chiqindilarni samarali boshqarishni talab etadi.

Bunda asosiy muammolardan biri turli kapital shakllari — tabiiy, inson va jismoniy kapital o‘rtasidagi mutanosiblikni сақлаш hamda ekologik resurslarning iqtisodiy qiymatini to‘g‘ri baholash ҳисобланади. Shu asosda iqtisodiy barqarorlikning ikki asosiy shakli shakllangan:

[1] Vaxabov A.V. Sh.X.Xajibakiyev va boshqalar. Yashil iqtisodiyot: Darslik./.- Toshkent.: “Universitet”, 2020.- 262 b.

imrconf.com

Kuchsiz barqarorlik — tabiiy va jamg‘arilgan kapital hajmining vaqt davomida kamayib ketmasligiga asoslangan iqtisodiy barqarorlik;

Kuchli barqarorlik — tabiiy kapitalni saqlab qolish hamda qayta tiklanmaydigan resurslardan olinadigan daromadning ma’lum qismini qayta tiklanuvchi tabiiy resurslarni rivojlantirishga yo‘naltirishga asoslangan iqtisodiy barqarorlik modelidir.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2025-yilning “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e’lon qilinishi chuqur mazmun va strategik ahamiyatga ega. Zero, atrof-muhitda yashil hududlarning kengayishi, “yashil qalqon”larning ko‘payishi hamda tabiiy muhitni asrab-avaylash kelajak avlod uchun sog‘lom ekologik muhitni ta’minlashda muhim omil ҳисобланади. “Yashil” iqtisodiyot ekologik toza, energiya va suv resurslarini tejovchi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali ekologik xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, mamlakatimizning 2019–2030-yillarga mo‘ljallangan “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini amalga oshirish qayta tiklanuvchi va energiya samaradorligi yuqori bo‘lgan manbalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Mazkur strategiya iqlim o‘zgarishi sharoitida resurs tejamkor, ekologik barqaror va raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Barqaror rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan xalqaro amaliy faoliyat Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashabbusi asosida shakllantirilgan. Xususan, 2000-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan Ming yillik rivojlanish maqsadlari qabul qilinib, global miqyosda ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolarni bartaraf etishga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilab berildi.

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida bir qator tizimli muammolar mavjud bo‘lib, ular orasida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish darajasining yetarli emasligi, chiqindilarni qayta ishlash infratuzilmasining rivojlanmaganligi, ekologik madaniyatning sust

imrconf.com

imrconf.com

shakllanganligi hamda hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlar alohida ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish maqsadida muhim huquqiy asoslar yaratilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ–436-son qarori bilan 2030-yilgacha “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi tasdiqlangan bo‘lib, unda energiya samaradorligini oshirish, “yashil” investitsiyalarni kengaytirish hamda energiya sig‘imini kamaytirish bo‘yicha aniq maqsadlar belgilangan. Mazkur hujjat mamlakat iqtisodiyotini ekologik jihatdan barqaror rivojlantirishning muhim institutsional asosi hisoblanadi.

Shunga qaramasdan, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik iste’mol madaniyatini shakllantirish masalalari dolzarbligicha qolmoqda. Aholi tomonidan chiqindilarni saralash amaliyotining yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi, qayta ishlash punktlari sonining kamligi hamda ekologik ongning sustligi ushbu jarayon samaradorligini pasaytiruvchi asosiy omillar hisoblanadi. Rivojlangan davlatlar, jumladan Yaponiya va Singapur tajribasi shuni ko‘rsatadiki, chiqindilarni saralash tizimini samarali tashkil etish ekologik barqarorlikni ta’minlashning muhim shartlaridan biridir.

Mutaxassislarning fikricha, davlat va xususiy sarmoya nisbati 1:5 bo‘lishi kerak. Xitoyga kelsak, u davlat budjetidan 10-15% va xususiy mablag‘lar hisobidan 85-90% miqdorida mahalliy "yashil" loyihalarni moliyalashtirish qoidasiga amal qilmoqda[2].

1-jadval.

O‘zbekiston viloyatlari bo‘yicha energiya iste’molining prognoz ko‘rsatkichlari (2010–2040-yillar)[3]

Hududlar	2010 -y.	2020 -y.	2025 -y.	2030 -y.	2035 -y.	2040 -y.	O‘rtacha yillik

[2] Иминов Т.К., Вахабов А.В., Тешабоев Т.З., Бутабоев М.Т. “Зелёная экономика” как основа устойчивого развития. Монография.-Т.: “Aloqachi”, 2019. - 480 с.

[3] International Energy Outlook 2016. With Projections to 2040. U.S. Energy Information Administration Office of Energy Analysis

imrconf.com

							o‘sish sur’ati, %
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	12	15	17	19	21	24	2.5
Andijon	14	17	19	22	25	28	2.7
Buxoro	10	12	14	16	18	21	2.4
Jizzax	8	10	12	14	16	18	2.9
Qashqadaryo	16	20	23	26	30	34	3.1
Navoiy	18	22	26	31	36	41	3.4
Namangan	13	16	18	21	24	27	2.8
Samarqand	20	25	29	33	38	43	3.0
Surxondaryo	11	14	16	19	22	25	2.6
Sirdaryo	7	9	11	13	15	17	2.3
Toshkent viloyati	22	27	31	36	41	47	3.2
Farg‘ona	17	21	24	28	32	37	2.9
Xorazm	9	11	13	15	17	20	2.4
Toshkent shahri	25	31	36	42	48	55	3.5

Jadval ma’lumotlari O‘zbekistonda kelgusida energiya resurslariga bo‘lgan talab ortib borishini ko‘rsatadi. Bu esa mamlakatda energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hamda “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini joriy etishni jadallashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Ayniqsa, quyosh va shamol energetikasini rivojlantirish, energiya tejovchi texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etish hamda hududlar kesimida differensial energetika siyosatini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, prognoz ko‘rsatkichlari asosida hududlarda energetika infratuzilmasini modernizatsiya

qilish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va energiya resurslaridan oqilona foydalanish bo‘yicha uzoq muddatli strategiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Hududlar kesimida tahlil qilinadigan bo‘lsa, yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish darajasi iqtisodiy rivojlangan hududlarda nisbatan yuqori ekanligi kuzatiladi. Xususan, Toshkent shahri hamda Navoiy viloyatida sanoat infratuzilmasining rivojlanganligi va investitsion faollik yuqoriligi sababli yashil texnologiyalarni joriy etish jarayoni tezroq kechmoqda. Boshqa hududlarda esa infratuzilma yetishmovchiligi, moliyaviy resurslarning cheklanganligi va sanoatlashuv darajasining pastligi muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni murakkab va uzoq muddatli strategik yo‘nalish hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar, xalqaro hamkorlik va investitsion loyihalar muhim natijalar bermoqda. Biroq mavjud ekologik, iqtisodiy va institutsional muammolarni bartaraf etish uchun ilmiy asoslangan yondashuvlarni kengaytirish, ekologik madaniyatni rivojlantirish hamda innovatsion texnologiyalarni faol joriy etish zarur hisoblanadi. Natijada nafaqat ekologik barqarorlik, balki milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli raqobatbardoshligi ham ta’minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktabrdagi “2019 — 2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477- son Qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy

imrconf.com

etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. Toshkent sh., 2023-yil 16-fevral.

3. Лагутенков А. А., Родионов Д. Г. Этапы эволюции и развития «зеленой» экономики // Вестник Академии знаний. 2022. №2 (49). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/etapy-evolyutsii-i-razvitiya-zelenoyekonomiki

4. Vaxabov A.V. Sh.X.Xajibakiyev va boshqalar. Yashil iqtisodiyot: Darslik./.- Toshkent.: “Universitet”, 2020.-262 b.

5. Иминов Т.К., Вахабов А.В., Тешабоев Т.З., Бутабоев М.Т. “Зелёная экономика” как основа устойчивого развития. Монография.-Т.: “Aloqachi”, 2019. - 480 с.

6. Alimova M. Y., Anvarovna P. S. RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR JORIY ETISH SHAROITIDA KORXONALARDA MEHNAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO ‘NALISHLARI //PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI. – 2026. – Т. 18. – №. 01. – С. 421-424.

7. Alimova M. Qishloq aholisi turmush darajasini oshirishda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish yo ‘llari. – 2025.

8. Ochilov A. O., Alimova M. Y. ҚИШЛОҚ АҲОЛИСИ ТУРМУШ ДАРАЖАСИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР ТАСНИФИ //THE INNOVATION ECONOMY. – 2024. – Т. 4. – №. 04.

9. Alimova M., Kurbanova F. ECONOMIC MECHANISMS OF STATE SUPPORT OF PRIVATE ENTREPRENEURSHIP //Экономика и социум. – 2024. – №. 11-1 (126). – С. 45-50.

10. Alimova M. CLASSIFICATION OF FACTORS AFFECTING THE STANDARD OF LIVING OF VILLAGE POPULATION //THE INNOVATION ECONOMY. – 2023. – Т. 1. – №. 02. – С. 49-53.

imrconf.com

11. https://www.uzbekistan.org.ua/ru/news/7413 ПЕРЕХОД К «ЗЕЛЁНОЙ» ЭКОНОМИКЕ В УЗБЕКИСТАНЕ: СТРАТЕГИИ И ВЫЗОВЫ .

https://green.imv.uz/uz/about/

https://ecospbcom.ru/opredpriyatii/stati/484-sortirovka-musora-v-yaponii

https://kun.uz/news/2021/01/25/ozbekistonda-iqtisodiy-rivojlanishkorsatkichlari-eng-baland-va-quyi-bolgan-hudud-qaysi?

imrconf.com